

YANGI KONSTITUTSIYA- TARAQQIYOT QOMUSI

O‘rozqulov Oybek

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi orazqulovoybek@1234 +998940982910

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo‘lgan konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh — hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo‘la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan „yangi avlod“konstitutsiyalari kiradi.

Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi.

Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an’analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradi.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya Prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo‘jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan. Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e’lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko‘rib, loyihani

tuzatib va ma'qullab Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama modda muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat edi.

2022-yilning may oyi xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan oy sifatida tarixga muhurlanmoqda. Boisi 17-may kuni mamlakatimiz parlamentida eng ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan ikki siyosiy partiya – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qo'shma yig'ilish bo'lib o'tdi.

Shuningdek, 20-may kuni Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qo'shma majlisi o'tkazilib, yig'ilishda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish katta kuch va mas'uliyat talab qilishi bunda har bir fuqaro fikrlarini tinglash zarurligi qayd etilib, ushbu vazifalar bilan shug'ullanuvchi Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi.

O'tgan bir haftada Konstitutsiyani takomillashtirish uchun fuqarolarga o'z takliflarini bildirishning bir necha ko'rinishdagi imkoniyatlari yaratildi. Jumladan, ayni kunda yurtdoshlarimiz Meningkonstitutsiyam.uz portali hamda maxsus Telegram-bot va koll-markaz orqali takliflarini bildirishlari mumkin.

Qisqa vaqt ichida ushbu xalq vakillari tomonidan ilgari surilgan tashabbus fuqarolarimiz va keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Xo'sh bunga sabab nimada? Nega ushbu tashabbus qisqa vaqt ichida mamlakatimiz bo'ylab keng quloqch yoymoqda?

Sababi, ushbu tashabbus minglab fuqarolarimiz ko'nglidagi o'zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatlidir. Barchamizga ma'lumki, inson ulg'ayib, tafakkur dunyosi kengaygani sari uning o'ziga bo'lgan talabi ham ortib boradi. O'tgan yillar davomida jamiyatimiz va unda ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslarda xalqimizning ishtiroki va ular tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarining ahamiyati har tomonlama ortdi. Buning natijasida jamiyatimizning ham islohot va o'zgarishlarga bo'lgan talabi kun sayin ortmoqda.

Fuqarolar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar asnosida qabul qilinishi belgilangan qonun va qarorlarimiz yanada takomillashtirilib, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan xalqchil moddalarga moslashtirilgan holda qabul qilinmoqda.

Bizga ma'lumki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida bugungi globallashtirish jarayonida yurtdoshlarimiz va mamlakatimiz manfaatlarini to'laqonli himoya qilgan holda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan alohida ikki yo'nalish va uning doirasida amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalar belgilandi. Jumladan, Harakatlar strategiyasidan farqli ravishda beshinchi – Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish hamda oltinchi – Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi yo'nalishlar belgilandi.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023- yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.

Yakshanba kuni bo'lib o'tgan O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi bo'yicha referendumda saylovchilarning ishtiroki, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 84,54 foizni tashkil etdi. Bu haqda dushanba kuni bo'lib o'tgan brifingda Markaziy saylov komissiyasi raisi Zayniddin Nizomxo'jayev ma'lum qildi.

Saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 19 million 722 ming 809 nafar saylovchidan 16 million 673 ming 189 nafari ovoz berdi. Saylovchilarning 90,21 foizi Konstitutsiyani o'zgartirishni yoqlab, 9,35 qarshi ovoz berdilar.

Jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan. Baxtimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz millatidan qat'iy nazar barcha o'zbek xalqi, fuqarosining butun bir imkoniyati va majburiyatlarini o'zida aks ettirgan bo'lib, hali uzoq yillar davomida yangi O'zbekistonning baxtli va kelajagi buyuk avlodlari uchun ham munosib xizmat qiladi.